

# O‘ZBEKISTONDA ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJIGA EGA BO‘LGAN BOLALAR TA’LIM-TARBIYASI TIZIMI TARIXIGA DOIR

*Fayziyev O‘rinboy Toshmuhammad o‘g‘li*  
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy*  
*pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi tizimi tarixi haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekiston hududida XIX asr ikkinchi yarmida dastlabki alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar ta’lim- tarbiyasi muassasalari vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari tahlil etilgan. Xususan, XIX asrning oxirlarida Turkistonda boshpanasiz bolalar uchun boshpanalar hamda alohida ta’lim ehtiyojiga ega, kar va ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etish jarayoni boshlanganligi qorixona va madrasalardagi alohida dars mashg‘ulotlari misolida yoritilgan. XX asr 20-30-yillarida O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi tizimi tarixida yangi davr boshlanib, mazkur ta’lim muassasalari sovet davlati andozasida shakllantirilganligi mazkur davrda tashkil etilgan ta’lim maskanlari misolida ochib berilgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida XX asr davomida tizimli ravishda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasiga moslashtirilgan maktab-internatlarning tashkil etilishi hududlar kesimida tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** nogiron, alohida ta’lim ehtiyoji, ko‘zi ojiz, maktab-internat, Y.A.Komenskiy, Chor Rossiyasi, sovet rejimi, qorixona, madrasa, vaqf, Qur’oni karim, kar-soqovlar, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati.

## ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Файзиев Уринбой Тошмухаммад угли*  
*независимый исследователь Национального*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история системы обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями в Узбекистане. Проанализированы исторические предпосылки возникновения на территории Узбекистана первых учреждений обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями во второй половине XIX века. В частности, на примере корихон и медресе освещён процесс создания в конце XIX века в Туркестане приютов для беспризорных детей, а также специальных школ для детей с особыми образовательными потребностями, в том числе для глухих и незрячих детей. Показано, что в 1920–1930-е годы в истории системы обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями в Узбекистане начался новый этап, в ходе которого данные образовательные учреждения формировались по образцу советской государственной системы образования. Это раскрыто на примере учебно-воспитательных учреждений, созданных в рассматриваемый период. В статье также проведён региональный анализ процесса систематического создания во всех областях Узбекистана в течение XX века школ-интернатов, адаптированных к обучению и воспитанию детей с особыми образовательными потребностями.

**Ключевые слова:** инвалидность, особые образовательные потребности, незрячие, школа-интернат, Ян Амос Коменский, Российская империя, советский режим, корихона, медресе, вакф, Коран, глухонемые, Общество слепых Узбекистана.

**ON THE HISTORY OF THE EDUCATION AND UPBRINGING SYSTEM  
FOR CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS IN  
UZBEKISTAN**

*Author: Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li*

**Abstract:** This article discusses the history of the system of education and upbringing for children with special educational needs in Uzbekistan. It analyzes the historical conditions that led to the emergence of the first educational institutions for children with special educational needs in the territory of Uzbekistan during the second half of the nineteenth century. In particular, using the example of specialized instructional practices in qorikhonas and madrasas, the article examines the process that began in Turkestan at the end of the nineteenth century of establishing shelters for homeless children as well as specialized schools for children with special educational needs, including those with hearing and visual impairments.

The article further demonstrates that the 1920s and 1930s marked the beginning of a new stage in the history of the education and upbringing system for children with special educational needs in Uzbekistan, during which these educational institutions were developed in accordance with the Soviet state model, as illustrated through the educational institutions established in that period. In addition, the systematic establishment throughout the twentieth century of boarding schools adapted to the educational and developmental needs of children with special educational needs across all regions of Uzbekistan is analyzed from a regional perspective

**Key words:** Disability, special educational needs, visual impairment, boarding schools, **John Amos Comenius**, Tsarist Russia, the Soviet regime, qorikhona, madrasa, waqf, the Holy Qur'an, deaf-mute individuals, the Society of the Blind of Uzbekistan.

Kirish. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor hamisha davlat ko'magi va yordamini talab etgan. Shu bois, nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim berish masalasi tarixning barcha davrlarda va barcha

davlatlarda ham bahs-munozarali masala bo'lib kelgan. Nogironligi bo'lgan bolalarni ham qolgan bolalar singari ta'lim olishi zarurligi o'z davrining etuk olimlari va gumanist pedagoglari tomonidan jamiyatga va davlatga uqtirib kelingan.

Y.A.Komenskiy barcha nogiron bolalar ta'lim olishi mumkinligiga chuqur ishongan va uning fikricha, "Savol tug'iladi: eshitish qobiliyatini yo'qotgan, ko'zi ojiz, va aqli zaiflarni o'qitish mumkinmi? Axir ular jismoniy nogironligi tufayli bilimlarni to'liq singdirish qiyin-ku? Men javob beraman: inson bo'lmaganlardan tashqari hech kim inson ta'limidan chetlashtirilishi mumkin emas. [1]

Xuddi shu davrda boshqa Yevropa davlatlarida ham nogironlar uchun maktablar ochiladi, bu holat shundan dalolat beradiki aynan shu davrda butun G'arbiy Yevropa davlatlarida nogironlarga ijobiy munosabat shakllangan. Bu holat o'sha davrdagi Sharqiy Yevropa davlatlari, xususan Chor Rossiyasiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili. Nogironligi bo'lgan bolalar va O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimi tarixiga doir ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Jumladan, I.Gaspirali, N.N.Malofeev, I.Usubjanov, Y.D.Dneprov, I.V.Perevoznikova, R.R.Denisova, V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, Z.Abdurashidov, R.Shamsutdinov, B.Rasulov, E.D.Norpo'latovlar tadqiqotlarida bayon etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi mukofotlash tizimi tarixiga doir ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, ularda amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot, qishloq ho'jaligi, aholining tumush-tarzi, etnik tarkibi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi tahlil qilingan.

Tahlil usullari. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga izchil amal qilindi.

Natijalar va muhokama. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi tufayli xalqimiz o'tmishda iqtisodiy ahvoli ancha qoloq va qashshoqlikda yashaganlar.

Turkiston o'lkasida xalqning ijtimoiy ahvoli nochorligi tufayli bolalarda ko'plab surunkali va og'ir kasallar ko'p bo'lib, ularni doimiy nazorat qilish va statsionar davolash tizimi mavjud bo'lmagan. Turli kasalliklar Ayniqsa, ko'z kasalliklari juda ko'p bo'lgan. Masalan XIX asrning oxirlarida Amudaryo bo'limida aholining uchdan bir qismi ko'z kasalliklari bilan og'rib turgan. 1888-yilda ilg'or jamoatchilik tashabbusi bilan tuzilgan ko'rlarga vasiylik qiluvchi Turkiston "idorai xayriya" tashkiloti xayr-ehson tariqasida to'plagan arzimablag'lar hisobidan Toshkent, Verniy (Olma Ota), Buxoro, Skobelev (Farg'ona), Samarqand, Marv (Marida) tekin xizmat ochishga erishdi. Lekin bu kasalxonalarining har birida olti yoki o'n ikkitadan ortiq o'rin bo'lmas edi. [2] Chor Rossiyasi davrida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni aniqlash va tarbiyalash masalasida maxsus jamiyatlar tashkil etildi. [3]

Xususan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni o'rganish, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar hamda voyaga etmagan huquqbuzarlarni kuzatish, bolalar xarakterini o'rganish kabi yo'nalishlar bo'yicha maxsus komissiyalar tuzildi. [3]

Rossiya imperiyasida 1806-1930-yillar oralig'ida ko'r, kar va aqliy zaif bolalar uchun maxsus ta'lim tizimi yaratildi. [4] 1806-yilda Pavlovskda Rossiya kar-soqov bolalar uchun birinchi eksperimental maktab, 1807-yilda esa ko'rlar uchun maktab ochildi. 1918-yilda Petrograddagi Maktabgacha ta'lim institutida Bolalik nuqsonlari fakulteti ochildi. [5] Bu davrda bolalarni o'qitishga emas, balki maxsus ehtiyojli bolalarni davolashga e'tibor qaratildi. 1923-yildan boshlab defektologlarni tayyorlash ularning ixtisosligiga qarab turli yo'nalishlarda amalga oshirildi: tiflopedagogika, kar-o'qituvchilar, oligofrenopedagoglar shular jumlasidandir. 1932-yilda "Jismoniy nogiron bolalar uchun umumiy majburiy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi farmon chiqarildi. XX asr davomida maxsus (tuzatish) ta'lim muassasalari, asosan internat maktablari tizimi rivojlandi. SSSRda, keyinchalik Rossiyada maktab yoshidagi nogiron bolalarning aksariyati ushbu muassasalarda ta'lim olib boshlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Chor Rossiyasi bosqiniga qadar Turkistonda samarali ta'lim tizimi tashkil

etilgan bo'lsa-da, va bu ta'lim tizimi necha asrlar davomida o'zgarmadi. [6]  
V.Nalivkin ta'rifi ko'ra islomning asosiy tayanchlari hisoblangan ta'lim muassasalari quyidagilar edi: maktab, dalailxona, madrasa, qorixona. [7]

Mashhur sharqshunos olim N Ostraurov Turkiston maktab ta'limini o'rgangan va quyidagi fikrlarni bildirgan. Turkiston maktablarida asosiy e'tibor diniy ta'limga qaratilganligi, maktablar gigienik talablarga javob bermasligi, maktablarda darslarni masjid imomlari o'tishi, doimiy bosim ostida bo'lishi va ta'lim jazolash metodiga asoslangini tanqid qilinadi.

Ostraurov maktablarning ijobiy jihatlari ham sanab o'tgan bu jihatlari: Dasturxon oldida Turkiston bolalari rus bolalariga nisbatan sabrli ekanligi, bu maktablar jamiyatdan ajratib qo'yilmaganligi sababli bu maktabni bitirgan bolalar jamiyatga erkin integratsiya bo'lishi keltirib o'tilgan. [8]

Qorixonada, asosan maktabni tugatgan kattalar uchun mo'ljallangan ta'lim muassasasi va bolalar uyining noyob kombinatsiyasi edi. Talabalar orasida ko'zi ojizlar ko'pchilikni tashkil etgan. Ular qoriboshi (o'qituvchi) rahbarligida Qur'onni yodlashni o'rgandilar. qorixona, madrasa singari, vaqfdan olinadigan daromad evaziga tashkil etilgan va saqlanib qolgan. Talabalar, shuningdek, Ramazon oyida va shunga o'xshash boshqa marosimlarda marhumlar uchun Qur'on o'qib, muntazam daromad olishgan.

Qorixona dalailxonaga qaraganda kamroq tarqalgan edi. 1892-yilda Farg'ona viloyatida ushbu ta'lim muassasalari soni 252 ta bo'lgan bo'lsa-da, 1903-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ularda 231 ta, 1654 talaba tahsil olgan; ammo, har bir qorixonadagi o'quvchilar soni oz, o'rtacha o'ntadan kam edi. Xiva xonligida oilalari bilan turmush qurgan talabalar uchun maxsus qorixonalar mavjud edi. [9]

Qorixona ham madrasa kabi vaqf daromadi hisobiga qurilgan va saqlangan. Uning binosi madrasadan kam farq qilgan va kichikroq bo'lgan. Qorixonalar masjid va mozorlar qoshida ham tashkil etilgan. Ulardagi hujralar soni qorixona binosiga qarab har-xil bo'lgan. Masalan Qo'qon shahridagi Sulaymon xo'ja Eshon nomli qorixonaning 3 ta hujrasi bo'lsa, Xalif Oltishish qorixonasida 11 ta hujra bo'lgan. [10]

Shuningdek qorixonalarning vaqf daromadi va hujralar soniga qarab, undagi qorilar soni ham turlicha bo'lgan. Masalan, Xo'jand shahri Boqtosh dahasidagi qorixonaning 20 tanob eri, 2 ta suv tegirmoni bo'lib, ulardan bir yilda tushadigan daromad 290 so'mni (rus puliga) tashkil qilgan. Qorixonaning 6 ta hujrasi bo'lib, unda 20 dan 30 yoshgacha bo'lgan 13 ta qori o'qigan. [11] Shuningdek, eng katta qorixona Qo'qondagi Mulla Bahrom qori domlalik qilgan "Sultonmurodbek" qorixonasida 75 ta qori o'qib, unga 38 ta do'kon 1 ta karvonsaroy va bir necha tanob er bir yilda 2173 so'mlik daromad keltirib turgan. [12]

1875-yili Turkiston o'lkasining Farg'ona viloyatida 235 ta qorixona bo'lib, unda 1700 ta qori o'qigan. Ularni uyezdlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha edi: [13]

Uyezdlar soni	Qorixonalar soni	Qorilar soni
Qo'qon	106	604
Namangan	50	305
Andijon	44	320
Marg'ilon	21	395
O'sh	14	76
JAMI:	235	1700

1917-yilda Chor Rossiyasida inqilob yuz beradi va hokimiyatga bolsheviklar keladi. [14] Bu holat tabiiyki Chor Rossiyasining mustamlaka hududi hisoblangan Turkistonga ham ta'sir ko'rsatadi.

Sovet rejmi avval boshdan boshlab Chor Rosiiyasining barcha tizimlarini o'zgartirishga harakat qiladi. Xususan Boshpanasiz bolalar uchun boshpanalar hamda alohida ta'lim ehtiyojiga ega, kar va ko'zi ojiz bolalar uchun maktablar tashkil etishni reja qiladi. [3]

O'zbekistonda sovet davrida ko'zi ojiz nogironlarga bo'lgan munosabat tarixi 1920-yilga taqaladi. 1920-yil 26-oktabrda sog'likni saqlash, ijtimoiy ta'minot va maorif xalq komissarliklari "Kar-soqovlar va ko'zi ojizlarning sotsial ta'minoti to'g'risida" qaror qabul qildi. Bu qaror nogironlar hayotida muhim hujjat bo'ldi. 1926-yil yanvar oyida VKP (b) MKning maxsus chaqirilgan kengashida ko'zi

ojizlar jamiyatini tuzish zarur deb topildi hamda partiya tashkilotlariga bu ishda yordam berish to'g'risida ko'rsatma berildi. 1925-yilda Butunrossiya ko'zi ojizlar Jamiyatining tuzilishi boshqa jumhuriyatlarga ham turtki bo'ldi. Bizdagi yosh faollar ko'rish bo'yicha nogironlardan: Z.Ergashev, Yu.Ilyosov, Q.Primqulov, M.Xidirov, S. Shabalin, D. Norxo'jaev, X.Rahmatullaev, V.Abramchaev, M.Zohidov, P.Bryansev va boshqalar ko'zi ojizlarni ijtimoiy-foydali mehnatga tortish, ular orasida braylcha savodsizlikni tugatish borasida katta ishlar qilishgan. [15]

Ko'zi ojizlarning jumhuriyat birlashmasini tuzish masalasi pishib yetila boshladi. 1929-yilda O'zbekiston SSR xalq komissarlari Sovetining qaroriga muvofiq ijtimoiy-ta'minot xalq komissarligi qoshida ko'zi ojizlarning mahalliy okrug bo'limlari faoliyatini koordinatsiyalash va bunga rahbarlik qilish yuzasidan tashkiliy byuro barpo qilindi. Okrug bo'limlari va boshlang'ich tashkilotlarning mablag'lari konsertlar, teatr tomoshalari qo'yishdan tushgan pullar ko'zi ojizlarga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholi bergan ixtiyoriy xayr-ehsonlardan tarkib topar edi. Ijtimoiy ta'minotning okrug bo'limlari qoshida ko'zi ojizlarning yordam kassalari vujudga keldi. Mazkur kassalarning mablag'lari hisobiga ko'zi ojizlar kirib ishlaydigan kichik-kichik hunarmandchilik ustaxonalari ochildi. Faollar ana shu ustaxonalar tajribasidan kelib chiqib, nogironlar kooperatsiyasi va hunarmandchilik kooperatsiyasi qoshidagi maxsus sexlarda, ko'zi ojizlarni ishga joylashtirish bilan shug'ullandilar. Boshlang'ich tashkilotlar va okrug bo'limlari mustahkamlana borgan sari ko'zi ojizlarni ishga joylashtirish ham osonlasha bordi. [15]

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilash maqsadida XX asrning 30-yillarida turli xil jamiyatlar tashkil etila boshlandi. Shunday jamiyatlardan biri O'zbekiston Respublikasi ko'zi ojizlar jamiyati 1932-yilda tashkil topgan. [15]

Lekin, bu tashkilotning Nizomi tashkilot tashkil etilishidan 3 yil oldin 1928-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq komisariyati sovetining raisi Fayzulla Xo'jaev tomonidan tasdiqlangan. Bu hujjatning 3 yil oldin imzolanishi jamiyatni

tashkil etilish sanasiga jamiyat a'zolarining yondoshuvini xilma-xilligini keltirib chiqarmasligi lozim. Boisi, jamiyat qo'rg'oniga ilk tamal toshini qo'ygan insonlar birinchi Qurultoy o'tkazilgan 1932-yil 15-iyunni jamiyatning tashkil topgan kuni sifatida e'tirof etishgan. Jamiyat tarixi to'g'risida yozilgan barcha manbaalarda bunga guvoh bo'lamiz. Biroq, bu hujjat O'zbekistonda ko'zi ojizlar jamiyati tuzilishiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. [15]

Shu yili 15-iyunda Toshkentda O'zbekiston ko'zi ojiz fuqarolari Markaziy boshqaruvining I tarixiy seyzdi bo'lib o'tadi va S.Z.Korotkov rais qilib saylanadi. Jamiyat o'z markaziy boshqaruviga ega bo'lib, mustaqil faoliyat yuritish huquqini qo'lga kiritgan. Shundan keyin 1939-yilda II seyzd, 1948-yilda III seyzd, 1953-yilda IV seyzd, 1958-yilda V seyzd, 1963-yilda VI seyzd, 1968-yilda VII seyzd, 1973-yilda VIII seyzd, 1978-yilda IX seyzdlari chaqirilgan. Ushbu seyzdlarda ko'zi ojizlar hayot faoliyati muammolariga dahldor bo'lgan masalalar o'z echimini topgan. [2]

XX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo davlatlari xususan O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar sog'lom bolalar bilan birga madrasa, yoki rus-tuzem maktabida ta'lim olishgan. Chunki u davrda bizning xududlarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus maktab internatlar mavjud bo'lmagan.

**Andijon viloyati ko'zi ojiz bolalarning to'liqsiz o'rta maktab-internati.** 1920-yil 26-oktabrda sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va maorif xalq komissarliklari "Kar-soqovlar va ko'zi ojizlarning sotsial ta'minoti to'g'risida" qaror qabul qildi. Bu qaror nogironlar hayotida muhim hujjat bo'ldi. 1926-yil yanvar oyida VKP (b) MK ning maxsus chaqirilgan kengashida ko'zi ojizlar jamiyatini tuzish zarur deb topildi hamda partiya tashkilotlariga bu ishda yordam berish to'g'risida ko'rsatma berilgan.

1955-yilning aprel oyida Asaka shahrida Andijon viloyati ko'zi ojiz bolalarning to'liqsiz o'rta maktab-internati tashkil qilingan. [2] O'sha paytlari direktori D.Sodiqova bo'lgan ushbu maktab-internatning to'rtta sinfi bo'lib, jami 36 nafar o'quvchi tahsil olgan. Maktab hayotida Akbarali Uzoqov, Ergashxon Qurbonova kabi sobiq direktorlarning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Ayniqsa,

E.Qurbonov rahbarlik qilgan 1956-1990-yillar davomida, uning sa'y-harakatlari tufayli 1967-yili maktab, ko'zi ojiz bolalarning o'rta maktab-internatiga aylantirildi. 1968-1974-yillar mobaynida Niyozbotir qishlog'i hududida zamonaviy jihozlangan 200 nafar o'quvchiga mo'ljallangan 3 qavatli maktab-intenat binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

70-yillar boshlariga kelib Ya.Melyukov, Ya.Boriyev, I.Ahmadjonov kabi tajribali o'qituvchilar safiga shu maktabning sobiq o'quvchilari M.Madaminov, J.Shamatov, M.Nizomxonova, T.Matqulova, N.Niyozmatova, B.Nasriddinov kabi yoshlar kelib qo'shildi. O'quvchilarni fan kabinetlarida o'qitish joriy etildi va ular etarlicha ko'rgazmali qurollar bilan jihozlandi. 1970-1990-yillar oralig'ida 5 nafar o'quvchi oltin, 1 nafar o'quvchi kumush medali hamda o'nlab o'quvchilar faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. [2]

Maktab-internat o'quvchilarining musiqa san'atiga qiziqishlarini hisobga olib "Gulnoz" havaskorlik dastasi tashkil etilgan. Mazkur dasta 1990-yil noyabr oyida Respublika ko'zi ojiz bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan "San'at bayrami" ko'rik tanlovida qatnashib faxrli I o'rinni egallagan. [2]

**Buxoro ko'r bolalar maktab-internati.** Buxoro shahar ko'zi ojiz bolalarning bilim maskani dastlab, 1953-yilda to'liqsiz o'rta ma'lumot beruvchi maktab-internat sifatida tashkil etilgan. Maktab ish boshlagan birinchi o'quv yilida 25 o'quvchi tahsil olgan bo'lsa, 1990-yilga kelib 202 nafar tarbiyalanuvchi tahsil olgan. [2]

**Kosonsoy ko'r bolalar maktab-internati.** Ko'zi ojiz bolalarning Kosonsoydagi maktab-internati 1965-yili Meli Boboyev tashabbusi bilan shaharning Dilshod ko'chasidagi "Chillaxona" masjidi binosida to'liqsiz o'rta maktab sifatida tashkil etilib, o'zi direktorlik qilgan. Namangan viloyati hududidagi 56 nafar ko'zi ojiz va chala ko'ruvchi bolalarni o'z quchog'iga olgan maktab-internati bolalarning o'qib savod chiqarishlarida hunar o'rganishlari va jamiyat hayotida faol qatnashishlarida katta ahamiyat kasb etadi. [2]

1968-1977-yillarda O'zKJ Markaziy boshqaruvi tashabbusi bilan Kosonsoy shahrining Mug' dahasida 220 nafar o'quvchiga mo'ljallab qurilgan zamonaviy

maktab 1977-yilda maxsus o'rta maktab-internatga aylantirildi.

Maktab o'quvchilari etarlicha ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlangan bo'lsalar-da o'zbek tili va adabiyoti, matematika, kimyo, ayniqsa chala ko'ruvchi bolalar uchun maxsus darsliklarga muhtoj. [2]

**Samarqand ko'r bolalar maktab-internati.** Samarqand viloyati ko'zi ojizlari turmush tarzini yaxshilash borasida Maryam Ro'ziyeva tashabbusi bilan 1961-yil avgust oyida Jomboy tumanida ko'zi ojiz bolalarning maxsus maktab internati tashkil etilgan. Maktab moslashtirilgan binoga joylashgan bo'lib, 3 ta sinf va bitta maktabgacha tarbiya guruhi tuzilgan bo'lib, jami 36 nafar o'quvchini o'z quchog'iga olgan edi. [2]

**Yu.Oxunboboyev nomidagi ko'r bolalarning Toshkentdagi maxsus maktab-internati.** Ko'r bolalarning Toshkentdagi maktab-internatining tashkil bo'lish tarixi o'lkada xalq maorifi Komissarligi faoliyatining boshlanishi bilan bog'liq. Harbiy asir hisoblangan vrach Kalman Xorvat mazkur maktab tashkilotchilaridan biri edi. Turli kasallik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun 1920-yilda dastlabki maktab ochilgan edi. Kalman Xorvat ana shu maktabning birinchi mudiri bo'lgan. [2] Maktab-internatning oyoqqa turishi va tarkib topishi davri bo'lgan bu yillar, eng og'ir yillar edi. Maktabni ta'sis etuvchilar bolalarni qabul qilish haqidagi e'lonlar berish va ota-onalar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishlari uchun Toshkentdan Krasnovodsk shahrigacha bo'lgan masofada faoliyat ko'rsatishlariga to'g'ri kelgan edi. [2]

1929-yili O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining raisi Yo'ldosh Oxunboboyevning bevosita ishtirokida maktabdagi ko'r va kar bolalarni ajratib o'qitish tashkil etiladi. Ko'r bolalarning maxsus maktab-internati tarixi ana shu yildan boshlangan. Maktab Parkent ko'chasi va uning hududida joylashgan 6-uyda tashkil etilgan. Maktab-internatning yotoqxona va yordamchi xo'jalik xonalari bitta binoda joylashgan edi. Maktabga Antonina Aleksandrovna Nozimova birinchi direktor etib tayinlanadi.

**Xiva ko'r bolalar maktab-internati.** Xiva shahridagi ko'zi ojiz bolalar internati ilk bor 1954-yilda to'liqsiz o'rta maktab sifatida tashkil qilingan.

Dastlabki o'quv yilida 41 nafar o'quvchi bilim olgan bo'lsa 1990-yilga kelib ularning soni 100 kishiga etgan. [2] Bu bilim dagohining birinchi direktori Sa'dulla Masharipov bo'lgan.

1987-yildan boshlab, bu internat maxsus o'rta maktab sifatida faoliyat ko'rsata boshlagan. O'sha davrda o'quvchilarning darsliklari etarli bo'lmasada, ko'rgazmali qurollar bilan to'la ta'minlangan. Maktab-internatda "O'quvchilar ovozi", "Avangard" va "Qizil galstuk" devoriy gazetalari muntazam chiqarilib borilgan. [2]

O'zbekistonda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasini keng jamoaga yoyish maqsadida "Bir safda" - "В одном строю" va "Yangi hayot" jaridalari faoliyat yuritgan.

"Bir safda"- "В одном строю" ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy jaridalari O'zbekiston Ko'zi ojizlar jmaiayati Markaziy boshqaruvining organi hisoblangan. U 1957-yilning sentabridan buyon chop etib kelinmoqda. Dastavval jarida "O'zbekiston ko'zi ojizlar hayoti"- «ЖИЗН слепых Узбекистан» nomli ostida chop etilgan edi. Bir kitobchda materiallar rus va o'zbek tillarida teng miqdorda bosilardi. [2]

O'zbek va rus tillaridagi materiallar bir sonda jamuljam holda mushtariylarga taqdim etilgan. Keyinroq nashrning har ikki tildagi sonlarini alohida tarzda chop etish yo'lga qo'yildi. 1964 yilda unga o'quvchilarni umum bilan bir safda qadam tashlashga chorlash ruhidagi "Bir safda" – "В одном строю" degan nom berildi. 1968 yildan e'tiboran jurnalning yassi yozuvda ham o'zbekcha va ruscha sonlari chiqa boshladi. Bora-bora jurnalxonlar doirasi shu qadar kengaydiki, 30 yil ichida to'rt variantda yilda 12 marta chop etiluvchi nashrning oylik adadi 500 dan naq 13 ming nusxagacha ko'tarildi. Adad ko'rsatkichlarining bu darajada shiddat bilan o'sishiga mushtariylar jug'rofiyasidagi kengayish ham turtki bergani haqiqat. Zero, jurnal o'sha kezlarda nafaqat Vatanimizda, balki sobiq ittifoqdosh respublikalar, chet davlatlarda ham qiziqish bilan mutolaa qilingan. Hatto uning vaqtida gazeta do'konlarida sotuvda bo'lgani haqida ma'lumotlar bor.

Xulosa. XIX asr o'rtalaridan boshlab Chor Rossiyasida nogironligi bo'lgan

shaxslarni aniqlash, davolash bo'yicha komissiyalar tashkil etildi.

Shu davrda Turkiston xududida nogironligi bo'lgan shaxslarni moddiy rag'batlantirish maqsadida turli xayriya jamiyatlari tashkil etildi.

XX asr boshlarida yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maktab internatlari va nogironlik jamiyatlarlari tashkil etildi. Bu holat yurtimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni foydali mehnat bilan ta'minlashga qaratilgan jarayon boshlanganligidan dalolat beradi.

Sovet davrida tashkil etilgan maktab-internatlar ko'zi ojiz bolalarning ta'lim olishida alohida o'rin tutgan. Ular maktablarda darsdan tashqari vaqtlarda, maosh beruvchi ish bilan ta'minlanishgan bu esa maktabda o'qishga bo'lgan rag'batni oshirgan.

Takliflar. Bugungi kunda maktab-internatdagi o'quvchilar darsdan keyin maosh bilan ta'minlanuvchi ish bilan shug'ullanishmaydi, internatlarni maosh beruvchi mos ishlar bilan ta'minlash zarur.

Respublikamizning ayrim hududlarida nogironlar jamiyatdan ajralgan holda hayot kechirishmoqda ularni aniqlash uchun komissiya tuzish zarur. Bu komissiya hududlarni aylanib nogironlarni aniqlashi va ularni yoshiga moslab yo maxsus maktab-internat yoki hududdagi inkluziv sinf tashkil etilgan maktablarga berishi yo ish bilan ta'minlashga ko'maklashishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н. Н. Малофеев Специальное Образование в России и зарубежом Часть II Западная Европа М.: "Печатный двор" 1996.-182 с.
2. Усубжанов И. Тарих саҳифаларида. Тошкент, 1992. -Б.109.
3. Днепров Е. Д. Очерки истории школы и педагогической мысли народов СССР Москва "Педагогика" 1991.- С 288.
4. Перевозникова И.В. Специальное образование в России: история, современность и правовые основы // Вестник Томского государственного педагогического университета. - 2012.- № 5. - С. 105.
5. Денисова Р.Р. Из истории высшего дефектологического образования в России // Высшее образование в России. - 2012. - № 6. - С. 137.

6. Исмаил Гаспирали Какая школа лучше? // Таржимон. 1901. Но 24
7. Наливкин В. и др. Краткий обзор современного состояния и деятельности мусульманского духовенства, разного рода духовных учреждений и учебных заведений туземного населения Самаркандской области, с некоторыми указаниями на их историческое прошлое // Сборник материалов по мусульманству. – Санкт-Петербург, 1899. – С. 39.
8. Остроумов Н. П. Сарты этнографические материалы “Среднеазиатская жизнь” 1908.-С 296.
9. Зайнабиддин Абдурашидов. Исмаил Гаспиринский и Туркестан в Начале XX века: связи-отношения-влияние.- Ташкент “Академнашр” 2011.-С. 383.
10. Шамсутдинов Р, Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири-XX аср бошлари). Андижон. 1995. Б. 106.
11. ЎзР МА 1-жамғарма, 18- рўйхат, 29-иш, 192-вароқ.
12. ЎзР МА 47-жамғарма, 1-рўйхат, 601-иш, 105-вароқ.
13. “Фан ва Турмуш” жаридаси. 1989. 5-сон.
14. N Jo'rayev, SH Karimov O'zbekiston Tarixi O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida II kitob. Toshkent; “Sharq” 2011.- В. 721.
15. Норпўлатов Е. Ж. Тарих кўзгусида. Тошкент, 2022. - Б.15.